



«ЦИФРОВОЙ ПАСПОРТ» в местовом режиме запустят с января 2023 года

5-стр.



WINDOWS 11 hech kimga kerak emasmi?

6-bet.



QANDLI DIABETga chalinganlar uchun...

8-bet.



ict.xabar.uz

Gazeta 1992-yil martdan chiqa boshlagan

Xabar

ERUR SEN SHO, AGAR OGOHSEN SEN, AGAR OGOHSEN SEN, SHOSEN SEN.

41 (1567)-son
14-oktabr
2022

@xabaruzofficial
facebook.com/xabar.uz/
@xabaruzofficial

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI NASHRI

www.xabar.uz

O'zbekiston – Hindiston: BUXORODA IT MUTAXASSISLARI TAYYORLAYDIGAN XALQARO UNIVERSITET OCHILADI



Buxoro viloyatining Qorako'l tumanida "Acharya International University of Uzbekistan" universitetini tashkil etish bo'yicha viloyat hokimligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Hindiston Respublikasining Acharya institutlar tarmog'i o'rtasida uch tomonlama hamkorlik shartnomasi imzolandi.

Ushbu shartnomani imzolashda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri o'rinbosari J. Egamberdiyev hamda Acharya institutlar tarmog'i ijrochi direktori Shalini Reddy ishtirok etdi.

Universitet tashkil qilingandan so'ng birinchi yil 1400 nafar talaba qabul qilinib, IT yo'nalishida Hindistonning malakali professor-o'qituvchilari tomonidan o'qitilishi boshlanadi.

Shuningdek, talabalarga zamon talablariga javob beradigan qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida zamonaviy kompyuter texnikalari bilan jihozlangan o'quv va laboratoriya xonalari, eng so'nggi axborot resurslari bilan boyitilgan kutubxonalar bilan bir qatorda shinam yotoqxonalar, sport maydonlari, suzish havzalari ham barpo etiladi.

Eslatib o'tamiz, Dehli shahrida bo'lib o'tgan Hindiston - O'zbekiston biznes-forumi doirasida AKT vazirligi hamkorligida Acharya instituti bilan o'zaro hamkorlik memorandumini imzolangan edi.

ENG BOY MILLIARDERLAR, TOP-10

(2022-yilning oktabr oyi holatiga ko'ra)

1. Elon Musk – \$210 mlrd.
2. Jeff Bezos – \$137 mlrd.
3. Bernard Arno – \$131 mlrd.
4. Bill Gates – \$106 mlrd.
5. Gautam Adani – \$105 mlrd.
6. Warren Buffett – \$94,2 mlrd.
7. Larry Page – \$91,32 mlrd.
8. Sergey Brin – \$87,4 mlrd.
9. Steve Ballmer – \$83,8 mlrd.
10. Mukesh Ambani – \$83,6 mlrd.



Manba: Bloomberg

INHA bitiruvchisi-2022

Yaxshi hayotga eltuvchi chipta

Toshkent shahridagi INHA universitetida bitiruvchi talabalarga diplom topshirish marosimi har yili juda tantanali tarzda o'tkaziladi. Tadbirga universitet professor-o'qituvchilari, AKT sohasi rahbarlari va yetuk mutaxassislari, va albatta, bitiruvchi yoshlarning ota-onalari taklif etiladi. Quvonch va hayajonlar, tabriklar, orkestr jo'rligida harbiy yigitlar tomonidan sahnaga olib chiqiladigan O'zbekiston va universitet bayroqlari, O'zbekiston va Janubiy Koreya Davlat madhiyalari... hammasi o'zgacha. Bu yil ham shunday bo'ldi.

Bu yilgi marosimda INHA prezidenti professor Myon Vu Cho boshchiligidagi Koreya Respublikasining INHA universiteti delegatsiyasi a'zolari, Koreyaning O'zbekistondagi muxtor elchisi janob Kim Xi Sang hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sherzod Shermatov faxriy mehmon sifatida ishtirok etdi.





Jumadan
Jumagacha

7-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'ttiz uchinchi yalpi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda kun tartibiga kiritilgan 11 masala ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-oktabr kuni Rossiya Prezidenti Vladimir Putin tashabbusi bilan Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar rahbarlarining norasmiy uchrashuvida ishtirok etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-oktabr kuni "Humo Arena" sport saroyiga tashrif buyurib, dzyudo bo'yicha jahon chempionati bellashuvlarini tomosha qildi. Davlatimiz rahbari erkaklar o'rtasida 90 kilogram-gacha bo'lgan vazn toifasidagi final bellashuvini kuzatdi. Qizg'in va teng kurashlar ostida o'tgan bahsda yurtdoshimiz Davlat Bobonov italiyalik raqibi Kristian Parlatini yengib, oltin medalni qo'lga kiritdi. G'olib Davlat Bobonov (oltin) va sovrindorlar Kristian Parlati (kumush), gruziyalik Lasha Bekauri va Luka Maysuradze (bronz) medallarini Prezident Shavkat Mirziyoyev topshirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-oktabr kuni elektromobil tarmog'ini rivojlantirish va xizmat ko'rsatish qamrovini oshirishga qaratilgan loyihalar taqdimoti bilan tanishdi. Taqdimotda "O'zavtosanoat" AJ rahbarlari xorijiy kompaniyalar bilan erishilgan kelishuvlar, o'zlashtirilishi kutilayotgan modellar haqida axborot berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 11-oktabr kuni mahallalarni obod qilish va aholini o'ylantirayotgan masalalarni hal etish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 11-oktabr kuni Tatariston Respublikasi Prezidenti Rustam Minnixonov boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Uchrashuvda Tatariston bilan amaliy sheriklikni kengaytirish va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida qo'shma innovatsion loyihalarni ilgari surish masalalari har tomonlama ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 12-14-oktabr kunlari Osiyoda hamkorlik va ishonch choralarini bo'yicha kengash hamda MDH Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlislarida ishtirok etish uchun tashrif bilan Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida bo'ladi. 13-oktabr kuni bo'lib o'tgan yuqori darajadagi xalqaro forum – Osiyoda hamkorlik va ishonch choralarini bo'yicha kengash sammitida qit'amizda xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi. Sammitda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

KATTA anjumanga KATTA tayyorgarlik



Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligida ICT WEEK UZBEKISTAN tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va yuqori saviyada tashkil etish maqsadida yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sherzod Shermatov ishtirok etdi.

AKT haftaligi doirasida matbuot anjumani, BPO sammiti, "Raqamli iqtisodiyot: rivojlanishning asosiy yo'nalishlari va huquqiy tartibga solish bilan bog'liq muammolar" mavzusida seminar, shuningdek, milliy AKT ko'rgazmasi ICT EXPO, IT-ta'lim forumi bo'lib o'tadi.

ICT WEEK UZBEKISTAN haftaligi 2004-yildan buyon har yili o'tkazib kelinayotgan eng muhim tadbirlardan biri hisoblanadi. Haftalik an'anaviy tarzda bir

qator ixtisoslashtirilgan tadbirlarni yagona formatda birlashtiradi.

Texnologiyalar haftaligining asosiy vazifasi tajriba almashish, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yutuqlarni namoyish etish uchun platforma yaratishdan iborat.

AKT vazirligida bo'lib o'tgan yig'ilishda O'zbekistonning IT-brendini yanada rivojlantirish, qolaversa, soha oldida katta marra etib belgilangan – IT-xizmatlar eksporti hajmini 1 mlrd. dollarga yetkazishni qisqa muddatlarda bajarib, har bir soha va tarmoq vakillariga O'zbekistonning jahon IT-bozoridagi o'rini yanada yaxshilash masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, ushbu tadbirni yuqori saviyada o'tkazishga kelishib olindi.

Hamkorlik

Istiqbolli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishib olindi

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sherzod Shermatov VISA kompaniyasining rivojlanish bo'yicha direktori Anton Borozdin hamda Markaziy Osiyo bo'yicha davlat organlari bilan ishlash direktori Janna Dyussenbina bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvni tashkil etishdan asosiy maqsad – AKT vazirligidan iborat delegatsiyaning AQSHga tashrifi davomida VISA kompaniyasi bilan imzolangan Memorandum ijrosi hamda bank va huquqni himoya qiluvchi organlar uchun treninglar tashkil etishdan iborat.

Uchrashuv davomida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, shu jumladan, onlayn to'lovlar va boshqa sohalaridagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari masalalari ham muhokama qilindi.

Shu bilan birga, AQSHda imzolangan Memorandum doirasida O'zbekistonda AKT sohasini rivojlantirish, raqamlashtirish va texnologiyalarni amalga oshirishda hamkorlik qilish, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishib olindi.

Tatariston Prezidenti delegatsiyasi IT-Parkka tashrif buyurdi

Tatariston Respublikasi Prezidenti Rustam Minnixonov boshchiligidagi delegatsiya O'zbekistonga tashrifi doirasida IT-Park faoliyati bilan tanishdi.

Tashrif davomida mehmonlarga Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri birinchi o'rinbosari Oleg Pekos hamrohlik qildi.

Rasmiy delegatsiya a'zolariga IT-Park va uning faoliyati hamda bu yerda yaratilgan sharoitlar tanishtirildi. Shuningdek, IT-Park yangi binosida davom etayotgan qurilish ishlari va uning kelgusidagi faoliyati haqida loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Shu bilan birga, ikki davlat o'rtasida hamkorlikni yanada kuchaytirish, jumladan, IT sohalarida kooperatsiyani oshirish va loyihalarni ilgari surish istiqbollari muhokama qilindi.

O'z navbatida, ikki tomonlama qo'shma biznes loyihalarini amalga oshirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.



Xodimlar e'tiborda

Markazda tibbiy ko'rik tashkil etildi



Aholi salomatligi, ularning sog'lom turmush tarzi bugun davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Nafaqat oila, balki mehnat

jamoasida ham har bir kishining salomatligi tuman boylig hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazida rahbariyat tashabbusi bilan xodimlar mehnatini muhofaza qilish va sog'lig'ini ta'minlash maqsadida maxsus tibbiy ko'rikdan o'tkazish tadbiri tashkil etildi.

Markazga malakali terapevt, lor, okulist, nevropatolog kabi shifokorlar jalb etildi. Mutaxassislar har bir xodimni individual tekshiruvdan o'tkazishdi, rentgen va qon tekshiruvlari olib bo'ldi, sog'lig'idan shikoyati borlarga o'z tavsiyalarini berishdi.

Yagona portal

Subsidiya olish bo'yicha yangi xizmat ishga tushdi

Nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilar uchun yaxshi yangilik e'lon qilindi.

Endilikda my.gov.uz orqali nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilar subsidiya olishlari mumkin.

Arizalar 3 ish kunida ko'rib chiqiladi.

Bunda nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilar (byudjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) – har bir xodim uchun 6 oy davomida har oy bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravari miqdorida subsidiya olishlari mumkin.

Bandlikka ko'maklashish markazi ishga qabul qilingan nogironligi bo'lgan shaxslarning haqiqatan ishlayotganligini monitoring qilib boradi.

Xizmatdan foydalanish bepul, shuningdek, juda oson va qulay.

Davra suhbat

Yangi yo'nalishlarni rivojlantirish zarur

“UNICON.UZ” DUKda yosh xodimlar ishtirokida asimmetrik kriptotizimlarni yaratish bo'yicha davra suhbat o'tkazildi. Unda markazning ilmiy xodimlari, mustaqil tadqiqotchilar va Toshkent axborot texnologiyalari universiteti magistrleri qatnashdi.

Davra suhbatini direktorning axborot xavfsizligi va kriptologiya bo'yicha birinchi o'rinbosari X.Hasanov olib bordi. U asimmetrik kriptotizimlarning muhimligi va zarurligini ta'kidlab, ularning joriy holatini tavsiflab berdi.

Markazning yetakchi mutaxassisi A.Ortiqboev “Asimmetrik kriptotizimlar” mavzusida ma'ruza qilib, asimmetrik kriptotizimlarning mustahkamligini ta'minlovchi matematik modellar va kriptotahlil to'g'risida axborotni taqdim etdi hamda yangi yo'nalishlarni rivojlantirish zarurligini qayd etdi.

Muhokamalarda, shuningdek, t.f.n. O.Ahmedova, f.-m.f.n. M.Nazarova, PhD O.Zokirov va magist M.Ja'farov ham qatnashdi.



TATU xabarlari

HIEDTEC LOYIHASINING 9-UCHRASHUVI



Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida Yevropa ittifoqi Erasmus+ dasturi bo'yicha HIEDTEC loyihasining 9-uchrashuvi bo'lib o'tdi. Loyiha o'quv jarayoniga axborot texnologiyalariga asoslangan innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va faol qo'llash orqali raqamli avlodning ilg'or ta'lim tizimiga moslashtirishga asoslanadi.

Yig'ilishda loyiha hamkorlari hisoblangan davlatlar – Bolgariya, Italiya, Lyuksemburg va Portugaliyadan to'rtta universitet hamda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistondan 15ta universitet, shuningdek, tegishli mamlakatlardagi ta'lim va fan vazirliklari vakillari ishtirok etdi.

Loyihaning asosiy maqsadi talabalarning masofadan turib ta'lim olish imkoniyatini yaratish uchun oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar tomonidan tegishli o'quv resurslari yaratilishi va mavjud barcha o'quv materiallarini masofaviy ta'lim platformalariga joylashtirib borishi, virtual muhitda ishlashni yaxshilash uchun “Masofaviy ta'limni tashkil etish texnologiyalari” kurslarini yo'lga qo'yishdir.

HIEDTEC loyihalarida oflayn ta'lim hamda masofaviy ta'limning sifatli amalga oshirishida nazorat qilish hamda yangicha ta'lim dasturlari takomillashtirilgan.

Shu kuni Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Bolgariyaning Ruse universiteti, Qirg'izistonning Ala-Too xalqaro universiteti va K.Tinistanova nomidagi Issiq-Ko'l davlat universitetlari bilan kelajakda turli yo'nalishlarda hamkorlikni kengaytirish bo'yicha memorandum shartnomasi imzoladi.

RAQAMLI QISHLOQ XO'JALIGI UCHUN INNOVATSION KURSLAR



Joriy yilning 10-14-oktabr kunlari Erasmus+ NICOPA: Raqamli qishloq xo'jaligi uchun yangi va innovatsion kurslar loyihasi doirasida Saken Seyfullin nomidagi Qozoq Agrotexnika universitetida “Raqamli qishloq xo'jaligini rivojlantirishda navigatsiya tizimini qo'llashning ahamiyati” mavzusida “Kuzgi maktab” hamda yakuniy konferensiya bo'lib o'tdi.

Ushbu tadbirda loyiha O'zbekistondagi hamkorlari – Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti va Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti, shuningdek, soha bo'yicha xususiy firmalar vakillari ishtirok etdi.

YAXSHI HAYOTGA ELTUVCHI CHIPTA



Tadbirda bitiruvchilarga o'z dil izhorlarini bildirish uchun dastlabki so'z koreyalik mehmon janob Myon Vu Cho'ga berildi.

– INHA universiteti prezidenti sifatida va butun INHA jamoasi nomidan bugun mazkur universitetning beshinchi bitiruv marosimida ishtirok etib turganingiz bilan barchangizni chin qalbimdan tabriklayman, – dedi professor. – Talabalarimizning yetuk iste'dodli bo'lib yetishishida yordam bergan universitet rahbariyatiga, professor-o'qituvchilar va barcha xodimlariga o'z minnatdorligimni bildiraman. Bitiruvchilarimiz nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyoga yetakchilik qilishga tayyor. Eng muhimi, fursatdan foydalanib, farzandlarini birinchi kunidan to bugungi bitiruviga qadar mana shunday mehri va sadoqat bilan qo'llab-quvvatlab kelgan ota-onalar va oila a'zolariga chin qalbimdan o'zimizning chuqur hurmatimni izhor etaman.

Myong Vu Cho ushbu marosimda bitiruvchilar quvonchiga sherik bo'lib turganidan g'oyatda xursandchiligini ta'kidlagan holda, imkoniyatdan foydalanib, INHA universiteti prezidenti sifatida o'z maslahatlari bilan bo'lishdi. “Eng avvalo, hech qachon qiyinchiliklardan cho'chimang. Nafaqat qiyinchilik, muvaffaqiyatsizlikdan ham qo'rqmang. Yillar o'tgandan keyin orqaga qaramang va o'tmishda hal qila olmagan narsalaringizdan afsuslanmang, aksincha, qiyin, ammo foydali qiyinchiliklarni boshdan kechirish orqali erishgan tajribalaringiz muvaffaqiyatingizga qanday yordam berishini intizorlik bilan kuting. Ishonchim komilki, bizning barcha bitiruvchilarimiz kelajakda uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni yengib, oxir-oqibatda o'z orzularini ro'yobga chiqarishadi. Ikkinchidan, jamiyatda atrofingizni o'rab turgan insonlar bilan yaqindan munosabat qiling va hayotingizni xayr-ehson bilan bezating”.

AKT vaziri Sherzod Shermatov o'z nutqida so'nggi yillarda hukumatimiz, ayniqsa, shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan O'zbekistonda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini rivojlantirishga va yoshlarni AKT sohasiga keng jalb etishga jiddiy e'tibor qaratilayotgani, IT-ta'lim mutaxassislarini tayyorlash va bozorning o'sishi hamda rivojlanishi uchun yetarli ishchi kuchi bilan ta'minlashda muhim rol o'ynashi, shu bois respublikamizda ta'lim sohasiga, ayniqsa, IT-ta'limga katta kuch sarflanayotganini alohida ta'kidladi.

Ta'kidlash joizki, Sherzod Shermatov ushbu universitetni tashkil etishda



qatnashgan va dastlab bu nufuzli ilm dargohiga rektorlik qilgan. Shu sabab u bu yerdagi jahon talablaridagi o'ziga xos o'qitish dasturi, yoshlarga qo'yiladigan talablar, boshqa universitetlar bilan farqli jihatlari va kerak bo'lsa ta'lim olishdagi qat'iy intizom va talabchanliklarni juda yaxshi biladi. Uning o'sha davr xotiralari barchada katta qiziqish uyg'otdi.

– Rektorlik paytimda birinchi bosqich talabalarimizga o'z takliflari bilan kirishdi, – deya esladi Sh.Shermatov. – Ular boshqa universitetlarda bo'lgani kabi o'zlarining “Quvnoqlar va zukkolar” guruhini tashkil etishmoqchiligini aytishdi. Juda yaxshi, mayli, tashabbusingizni qo'llab-quvvatlayman, dedim. Ammo oradan oylar o'tdi hamki, ular bu mavzuni qaytib ko'tarishmadi... Chunki bunga ularning bo'sh vaqtlari ham bo'lmadi. Hamma vaqt, hatto qorong'u tushganda ham kutubxonamiz talabalar bilan liq to'la edi, ular boshlarini kitobdan ko'tarishmay o'qishardi... Demoqchimanki, sizlar kabi iqtidorli va bilimli bitiruvchilar kelajakda IT sohasida yirik loyihalarni amalga oshirishiga ishonchim komil va sizdek zabardast, navqiron, bilimli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga biz hamisha tayyormiz. Zero, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini rivojlantirish sizdek yoshlar qo'lida! O'ylaymanki, barchangiz ilm olish yo'lida og'ishmay davom etasiz.

Tadbirda Toshkent shahridagi INHA universiteti rektori Muzaffar Jalolov ham so'zga chiqib, bitiruvchilar va ularning ota-onalarini siddiqildan tabrikhladi. O'z navbatida, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Vasiylik kengashi a'zolariga universitetni rivojlantirishda ko'rsatayotgan doimiy yordamlari uchun minnatdorlik bildirdi.

– Prezidentimiz tomonidan raqamli iqtisodiyotni drayver sohaga aylantirish belgilangan, – dedi M.Jalolov. – Shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, IT sohasi rivojida ta'limning o'rni beqiyos. Joriy yil davlatimiz tomonidan birinchi bor bakalavr yo'nalishi bo'yicha 100ta grant ajratilgani, oliy ta'lim, jumladan, IT-ta'lim sohasidagi tizimli o'zgarishlarga

yaqqol misol deb ayta olamiz va bu ishonch bizga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Biz Yangi O'zbekistonning kelajagiga bog'liq bo'lgan yuqori malakali IT-kadrlarni yanada sifatli tayyorlash mas'uliyatini chuqurroq his etgan holda faoliyatimizni davom ettiramiz.

To'rt yil davomida talabalarimizga axborot texnologiyalari hamda logistika sohaslarida mutaxassislar tayyorlash borasida erishgan tajriba va bilimlarimizni, barcha kasbiy mahoratimizni ulashdik va bundan buyon biz, hamkasb, deb atay olishimiz mumkin bo'lgan bitiruvchilarimizni ushbu muvaffaqiyat bilan qutlaymiz.

Shundan so'ng talablik davrini muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchilar o'z diplomlarini tantanali musiqa sadolari va qarsaklar ostida INHA universiteti (Koreya) prezidenti Myon Vu Cho va Toshkent shahridagi INHA universiteti rektori Muzaffar Jalolovdan qabul qilib olishdi.

Toshkent shahridagi INHA universiteti jadal rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari asri talablariga mos keladigan bilimli, qobiliyatli va kashfiyotchi yoshlarni yetishtirib chiqarish maqsadida 2014-yilda tashkil etilgan.

Universitet nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyoda IT, menejment va logistika sohaslarida eng yaxshi mutaxassislarini yetishtirishga qaratilgan ta'limni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston hukumatining kelajakka yo'naltirilgan strategiyasi mahsulidir. Bu dargoh bitiruvchilari erishayotgan yutuqlar uning O'zbekistondagi eng nufuzli oliy o'quv yurti ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari ushbu universitetni ta'lim sohasidagi muvaffaqiyatli hamkorlikning yorqin namunasi sifatida tan olgani bejiz emas.

Joriy yilda Toshkent shahridagi INHA universitetining Kompyuter va dasturiy injiniring hamda Biznes va logistika yo'nalishlari bo'yicha bakalavriat bosqichini 293 nafar talaba tamomladi. Ularning har biri maqto'v va olqishga loyiq. Ammo tengdoshlaridan bir pog'ona yuqori natijalar

bilan tamomlagan bitiruvchilar ham bor. Shulardan biri test sinovlarda eng yuqori ball to'plab davlat granti asosida o'qishga qabul qilingan va to'rt yil davomida o'qishdagi ilg'orligi bilan peshqadamlikni saqlab qola olgan Kamron Rustamovdir. Unga shu kuni universitetning maxsus diplomi topshirildi.

– Men ushbu bitiruv marosimi sahnasida nutq so'zlab turganimdan bag'oyat xursandman, – dedi K.Rustamov. – Ishonchim komilki, O'zbekistondagi yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan bo'lgan Toshkent shahridagi INHA universitetini muvaffaqiyatli tamomlaganingizdan har biringiz g'urur va yutuq tuyg'usini his qilmog'dasiz. Orzularingiz sizni umidlaringizning eng yuqori cho'qqisiga va imkoniyatlaringizning eng baland sarhadlariga olib chiqishiga ishonaman. Bu kun biz ota-onalarimizga ularning barcha umidlari va harakatlari behuda emasligini isbotlaydigan kundir. Bizga ko'rsatgan cheksiz mehri va qo'llab-quvvatlovi uchun aziz ota-onalarimiz va oila a'zolarimizdan minnatdormiz. Shuningdek, biz uchun g'amxo'rlik qilgan, bizni tarbiyalagan, bizni shaxs sifatida kamol topishimizga yordam bergan professor-o'qituvchilarimizga samimiy minnatdorligimni bildirmog'chimam. Bizga bergan bilimingiz, ma'ruzalar hamda barchamizga qo'llab-quvvatlash manbai bo'lganingiz uchun tashakkur.

Aziz do'stlar, siz bilimlisiz. Sizning malakangiz sizning darajangizda. Siz olgan bilim va malakangizni yaxshi hayotga eltuvchi chipta – Yangi O'zbekistonda yangi jahon kuchiga aylantirish uchun olib boruvchi yo'l deb biling.

Yaxshi hayotga eltuvchi chipta... Bu tashbeh barchani yanada ruhlantirib yubordi. Ishonamizki, yoshlar bilim olishdan to'xtab qolmaydi, kimdir keyingi bosqichni magistraturada davom ettiradi, kimdir xorijda. Muhimi, olgan bilim va malakalari o'z sohaslarida yuksalishlari uchun muhim poydevor bo'ladi.

Usmonjon YO'LDOshev

ПРЕЗИДЕНТ ПРИЗВАЛ ОБЕСПЕЧИТЬ КОНКУРЕНЦИЮ НА РЫНКЕ ЭЛЕКТРОМОБИЛЕЙ

Шавкат Мирзиёев 10 октября ознакомился с проектами «Узавтосаноат» по развитию отрасли электромобилей, передаёт пресс-служба президента.

Глава государства отметил растущий импорт электротранспорта. Спрос на него обусловлен более дешёвым обслуживанием — электромобили в эксплуатации в 10 раз дешевле машин с двигателем внутреннего сгорания.

«Самое главное — наши люди предпочитают их. Поэтому нам необходимо обеспечить население доступными, малозатратными, современными электромобилями», — добавил Президент.

Руководители концерна рассказали о договорённостях по организации выпуска электротранспорта и моделях, планируемых к освоению. Президент призвал налаживать выпуск популярных моделей с участием опытных иностранных



партнёров.

Для обеспечения доступных цен требуется повысить локализацию компонентов электромобиля. Отмечались возможности производства из местных запасов лития, графита и меди аккумуляторов и электропередаччиков — на них приходится порядка 40% себестоимости машины.

«Учитывая экологическую повестку и ради будущего, нам нужно развивать эту отрасль сейчас. Чем раньше мы это сделаем, тем больше конкуренции

появится на рынке автомобилей», — подчеркнул Мирзиёев.

Кроме того, глава государства указал на важность инфраструктуры для электротранспорта. Например, по Узбекистану установлено всего 50 станций зарядки, большей частью — в Ташкенте и Самарканде. Центры техобслуживания электромобилей и вовсе отсутствуют.

Поручено в ближайшие два года установить 2 тыс. новых электрозаправочных станций на трассах, парковках и АЗС. Также президент поставил цель создать сеть пунктов сервиса для электрических ТС.

Предприниматели-владельцы зарядных станций смогут отпускать энергию по свободной цене. Они также смогут рассчитывать на льготы по налогу на прибыль, земельному и имущественному налогам.

Также поручено проработать запуск электробусов в городах помимо Ташкента и Самарканды.



ИТ-КОМПАНИЯ ИЗ ДУБАЯ PROW ГОТОВИТСЯ НАЧАТЬ РАБОТУ В УЗБЕКИСТАНЕ

Провайдер ИТ-услуг в сфере кибербезопасности и управления данными Prow намеревается выйти на рынок Узбекистана. Об этом сообщает агентство Zawya.

Компания, базирующаяся в ОАЭ, анонсировала расширение географии на выставке Gitex Global 2022 в Дубае. Отмечается, что запуск услуг в Узбекистане и Бахрейне для неё — только начало нового этапа регионального развития.

Фирма уже более 12 лет работает на рынках услуг обработки цифровых данных и кибербезопасности. Своей целью компания считает выход в лидеры по оказанию соответствующих услуг на основе «единого окна».

Prow предоставляет B2B-сервисы интернет-провайдерам, операторам связи, а также госучреждениям, компаниям из сфер торговли, образования, финансов и финтех, из промышленности, гостиничной отрасли, транспорта и т. д.

В сфере обработки информации Prow может предложить платформу управления данными (Data Orchestration Platform) и платформу данных для ИИ, а также облачную инфраструктуру.

ОПЛАТИТЬ FAST TRACK В АЭРОПОРТУ ТАШКЕНТА МОЖНО ЧЕРЕЗ TELEGRAM-БОТ

Telegram-бот Uzbekistan Airports начал принимать платежи за услуги, пишет пресс-служба компании.

Сейчас через мессенджер можно оплатить Fast Track в международном аэропорту Ташкента. Эта услуга была запущена в мае и даёт возможность без очереди проходить регистрацию на рейсы, досмотр, паспортный и таможенный контроль.

Чтобы приобрести пропуск на Fast Track, нужно выбрать аэропорт Ташкента, терминал вылета и нужный рейс. Далее бот запросит имя клиента, обращающегося за услугой.

Фамилию и имя нужно вводить строго на латинице. После этого можно будет ввести реквизиты карты UZCARD или Humo для оплаты.

Услуга обойдётся в 170 тысяч сумов. Оплатить её также можно в терминале — наличными в суммах либо с карты UZCARD, Humo, Visa, Mastercard и т. д.

Оператор аэропортов запустил собственного бота в Telegram (@UzairportsBot) в конце сентября. Сейчас в нём можно посмотреть расписание рейсов, время регистрации и ворота для посадки.

В ближайшее время Uzbekistan Airports планирует расширить возможность оплаты услуг в аэропорту через бота. Сообщалось о планах наладить платежи за доступ к бизнес-залу Anor и недавно открытому CIP-залу.

«ЦИФРОВОЙ ПАСПОРТ» В ТЕСТОВОМ РЕЖИМЕ ЗАПУСЯТ С ЯНВАРЯ 2023 ГОДА

«Цифровой паспорт» заработает в пилотном режиме с нового года. Соответствующее постановление 6 октября издал Кабмин.

Тестирование системы будет проводиться в Ташкенте, с 1 января по 31 декабря 2023 года. На основании результатов эксперимента будут прорабатываться предложения по её внедрению по всему Узбекистану.

Поручено разработать приложение OneID Mobile для предъявления электронных версий паспорта и других документов. Загружать и использовать его можно будет бесплатно.

Зарегистрироваться в нём можно при помощи биометрической идентификации (Face ID) либо по мобильному номеру (Mobile ID). В приложении будут доступны электронные версии следующих документов: паспорт (ID-карта) гражданина Узбекистана; национальное водительское удостоверение; свидетельство о регистрации транспортного средства; свидетельство о рождении; свидетельство о регистрации брака; аттестат о среднем образовании; диплом вуза (степени бакалавра и магистра); сертификат вакцинации против COVID-19; кадастровый паспорт недвижимости; пенсионное удостоверение; студенческое удостоверение.

Подготавливать их автоматически будет Центр управления проектами электронного правительства, на основе данных соответствующих госорганов (МВД, Минюст, Пенсионный фонд и т. д.). По юридической силе в рамках эксперимента они будут равны с бумажными.



Пользователь будет предъявлять электронный документ через OneID Mobile. Приложение сгенерирует QR-код, с помощью которого сотрудники организации смогут проверить подлинность документа.

Использовать систему «цифрового паспорта» на первом этапе планируется в следующих направлениях: обслуживание в Центрах госуслуг; проверка документов сотрудниками дорожных патрулей СВДД; покупка ж/д и авиабилетов; регистрация на внутренние рейсы; регистрация в гостиницах и других местах размещения; оформление договора с мобильными операторами и интернет-провайдерами; пропуск в государственные вузы.

СОСТОЯЛАСЬ МЕЖДУНАРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ ICTACS 2022

В университете Амита в Ташкенте состоялась вторая международная конференция «Технологические достижения вычислительной науки» (International Conference on Technological Advancements in Computational Sciences — ICTACS 2022).


Мероприятие организовано совместно с Министерством по развитию информационных технологий и коммуникаций, казахстанским отделением IEEE, цифровой библиотекой IEEE Xplore и Scopus.

Международная конференция проводилась для объединения ученых-исследователей, ученых-практиков и промышленников со всего мира, а также для широкого спектра областей инженерии и управления.





WINDOWS 11 HECH KIMGA KERAK EMASMI?



Ma'lumotlarga ko'ra, shu vaqtgacha Windows 11 shaxsiy foydalanuvchilar kompyuterlarining atigi 3 foizida, korporativ kompyuterlarning esa 2,5 foizida yuklab olingan.

Yangi versiyadagi asosiy kamchilik ko'plab qurilmalar, masalan, 3-4 yil oldin chiqqan kompyuterlarga mos kelmasligidir.

Windows XP chiqqanidan keyin Windows Vista orqada qolgan edi. Windows 7 foydalanuvchilari esa Windows 8ga o'tishni istashmagan. Microsoft 2025 yil oktabrda Windows 10ni qo'llab-quvvatlashni tugatganidan keyin Windows 11 ommalashishi mumkin.

BIRINCHI MARTA INSONIYAT FAZOVIIY JISMI JILOVLADI

O'tgan oy NASA ataylab asteroid bilan to'qnashtirgan DART qurilmasi fazoviy jismni tabiiy orbitasini o'zgartirishga majbur qildi.


"Bu insoniyat fazoviy jism har-

akatini o'zgartirgan birinchi holat. Sayyoraviy mudofaa va insoniyat uchun burilish nuqtasi. Koinot bizga uloqtirgan narsalarni qaytarishga tayyormiz", — dedi NASA rahbari Bill Nelson.

Olimlar asteroid orbitasini 10 daqiqaga qisqartirishga umid qilishgandi, reja oshig'i bilan uddalandi: DART bilan to'qnashuv fazo "toshi" orbitasini 32 daqiqaga qisqartirdi.

"Endi asteroidning orbitasi 11 soat va 55 daqiqaga o'rniga 11 soat va 23 daqiqa", — qo'shimcha qildi Nelson.

TWITTERDA AKKAUNT OCHGAN VIKTOR ORBAN HAYRON QOLDI



Vengriya bosh vaziri Viktor Orban yaqinda, 10-oktabr kuni Twitter ijtimoiy tarmog'ida birinchi marta akkaunt ochdi. Va hayron qoldi...

"Twitterdagi birinchi kundan keyin meni bir savol qiynayapti: ajoyib do'stim Donald Tramp qayerda?", — deb yozgan Orban postiga Jon Travoltaning filmidagi hayron qolib turgan sahnasi aks etgan rolikni qo'shib qo'ydi.

AQShning sobiq prezidenti Donald Tramp tarafdorlari 2021-yil yanvarida Kapitolni ishg'ol qilishga uringanidan so'ng Twitter uning akkauntini butunlay bloklab qo'ygandi.

IPHONE ORQASIDAGI YOZUV NOTO'G'RI DEB TOPILDI




Apple kompaniyasining sobiq rahbari va asoschilaridan biri Stiv Jobs smartfonlar va boshqa gadjetlar uchun o'z protessorlarini yaratishga asos solgan va aynan uning talablari tufayli Tayvandagi TSMC barcha chiplarning yagona ishlab chiqaruvchisiga aylangan. Bu haqida iqtisodchi tarixchi Kris Miller o'zining "The Fight for the World's Critical Technology" kitobida yozadi.

Millerning so'zlariga ko'ra, har bir iPhone qurilmasining orqasidagi "Apple tomonidan Kaliforniyada ishlab chiqarilgan va Xitoyda yig'ilgan", deb noto'g'ri yozilgan.

Haqiqatan ham, iPhone'ning eng muhim komponentlari Kaliforniyada

ishlab chiqarilib, Xitoyda yig'ilgan. Biroq, ularni faqat Tayvanda yasash mumkin.

STARLINK RAQOBATCHISI ODDIIY TELEFONLARGA 5G INTERNETINI TARQATADI



Lynk kompaniyasi dekabrda boshlab 5G aloqa stansiyasi bazasida sun'iy yo'ldoshni ishga tushiradi. U SpaceX raqobatchisi sanaladi. Sun'iy yo'ldoshlar soni bo'yicha undan orqada qolishiga qaramay, yuqori tezlikdagi internetga patent olishda ilgirilib ketdi.

Kompaniya o'tgan yiliy oq sun'iy yo'ldosh va telefon o'rtasidagi aloqani sinovdan o'tkazdi. U o'z xizmatlarini 12ta mamlakat va 5ta qit'ada sinab ko'ryapti. Tajribalarda kosmosdan 5G signalini Yerdagi oddiy mobil qurilmalarga yetkazish imkoniyati namoyish etilmoqda.

Qo'lga kiritilgan patent orbital stansiyalarga 55ta mamlakatda 5G internetiga ulanishni kafolatlaydi.



Xalqaro hayot

CHARLZ IIIga TOJ KIYDIRISH MAROSIMI SANASI RASMAN E'LO'N QILINDI



Britaniya qiroli Charlz IIIga toj kiydirish marosimi 2023-yilning 6-mayida o'tkaziladi. Bu haqda rasman e'lon qilindi.

Marosimni Vestminster abbatligida Kenterberiy arxiyepiskopi o'tkazadi. Charlzning rafiqasi Kamilaga ham shu kuni toj kiydiriladi. U konsort-qirolicha maqomiga ega bo'ladi.

73 yoshli Charlzning onasi qirolicha Yelizaveta II shu yilning 8-sentabrda 96 yoshida vafot etgan edi. U jahon tarixida taxtda eng uzoq muddat o'tirgan (70 yil) qirolicha bo'ldi.

77 YOSHLI NOBEL SOVRINDORI 26 YILGA QAMALDI




Myanma sobiq rahbari, Nobel tinchlik mukofoti laureati Aun San Su Chji korruptsiya bo'yicha ayblov doirasida uch yil qo'shimcha qamoq jazosi oldi. Bu haqda BBC xabar berdi.

Harbiylar nazorat qilayotgan ushbu mamlakat sudi uni avval qator jinoyatlarda ayblab, ozodlikdan mahrum etgandi. Eng so'nggi jazo ham qo'shilib, uning qamoq muddati 26 yilga yetdi.

Harbiy hukumat Aun San Su Chjini jami 18ta: pora olish, saylovlarni o'tkazish qoidalarini buzish, ratsiyalardan noqonuniy foydalanish, pandemiya paytida cheklolarga amal qilmaslik singari jinoyatlarda ayblamoqda. Agarda barcha ayblovlar bo'yicha sud shafqat qilmasa, Nobel sohibasining qamoq muddati 190 yilgacha yetishi mumkin.

Aun San Su Chji — myanmalik siyosat arbobi, harbiy xuntaga muxolif "Demokratiya uchun milliy liga" partiyasi yetakchisi, 1991-yili Nobel tinchlik mukofotini qo'lga kiritgan. 2016–2021-yillarda — Myanma tashqi ishlar vaziri va davlat maslahatchisi (bosh vazir lavozimiga to'g'ri keladi). Hozir 77 yoshda.

"SHIMOLIY OQIM"DAGI "GAZ FAVORASI" FAZODA KO'RINDI



GHGSat kompaniyasiga qarashli sun'iy yo'ldosh Boltiq dengizida, Shvetsiya sohillari yaqinida "Shimoliy oqim" quvuridan otilib chiqqan gaz oqimini suratga oldi.

Rossiya va Germaniyani bog'lovchi "Shimoliy oqim-2" ikkita gaz quvurining yorilgan bitta quvuridan metan otilib chiqqandi.

Yorilish nuqtasida metan gazi oqimi tezligi soatiga 79 tonnani tashkil etgan. Bu GHGSat shu paytgacha aniqlagan "bitta manbadan sizib chiqishlar"ning eng yirigidir.

Metan — issiqxona effektiga sababchi bo'luvchi gaz, atmosferaning u bilan ifoslanishi shundoq ham o'zgaraverishlardan tolgan sayyoramizning iqlimini yanada tanglashtirishi mumkin.


QIZIL XOCH UKRAINADAN CHIQIB KETMOQDA

Qizil xoch xalqaro tashkiloti Ukrainadagi faoliyatini to'xtatishga qaror qildi. Bu haqda tashkilot vakiliga asoslanib Reuters xabar berdi.

Qizil xoch tashkiloti xavfsizlik nuqtai nazaridan ushbu qarorga kelgan.

Eslatib o'tamiz, 10-oktabr kuni Ukrainaga, jumladan Kiyevga Rossiya tomonidan ko'plab raketa zarbalari berilgan edi. Jami 75ta raketa uchirilgan bo'lib, 41tasini Ukraina havo mudofaasi zararsizlantirgan. Qurbonlar va yaradorlar bor.

GLOBAL BOYLIK QISQARISHI KUTILMOQDA — BLOOMBERG



12-oktabr kuni e'lon qilingan global boylik hisobotida ta'kidlanishicha, uy xo'jaliklarining moliyaviy aktivlari uch yillik rekord darajadagi o'sishdan so'ng, 2022-yilda nominal 2 foizdan ko'proq pasayishi mumkin.

Tadqiqotchilar bu yilni global boylik uchun sezilarli o'zgarishlar bo'ladigan "burilish nuqtasi" deb atamoqda.

Pul-kredit siyosatining keskinlashuvi iqtisod va bozorlarni siqib chiqarmoqda — uy xo'jaliklarining boyligi 10 foizga qisqaradi, — deyiladi Allianz hisobotida.

Rossiyaning Ukrainaga qarshi urushi pandemiya keyingi iqtisodiy tiklanishni to'xtatib qo'ydi va oziq-ovqat hamda energiya narxlarining ko'tarilishiga olib keldi. Bu esa butun dunyo bo'ylab markaziy banklarni qarz olish xarajatlarini oshirishga majbur qildi.

Maqsad – xalq roziligiga erishish

Murojaatlar ortida kimnidir qiynayotgan, o'ylantirayotgan masalalar, yechimini kutayotgan muammolar mujassam. Xo'sh, murojaat qachon qanoatlantirilgan hisoblanadi? Albatta, belgilangan muddatda ko'rib chiqilsa va unda keltirilgan har bir vaj asosli yechimini topsa. Buning uchun murojaatni ko'rib chiqayotgan xodimdan mas'uliyat, murojaat qiluvchidan o'ziga xos madaniyat ham talab qilinadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda murojaatlar bilan ishlashning muftoq yangi tizimi joriy qilindi. Maqsad nima? Albatta, odamlarning dardini eshitish, ular bilan ochiq muloqotda bo'lish, og'irini yengil qilish, pirovardida aholining davlat va jamiyatga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ularni hayotdan rozi qilish. Bu borada davlat idoralarning rahbarlari fuqarolar murojaatlarini joyida borib o'rganishmoqda. Ularga yechim topilmoqda, aholini qiynayotgan, o'ylantirayotgan masalalar bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilanmoqda.

“O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasining Qashqadaryo viloyat hududiy bo'linmasiga 2022 yilning 9 oyi davomida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasiga oid jami 627 nafar jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar (mahalliy telefon xizmatlari bo'yicha 34ta, ma'lumot uzatish xizmatlari bo'yicha 208ta, mobil aloqa xizmatlari bo'yicha 340ta, pochta xizmatlari bo'yicha 25ta, teleradioeshittirish xizmatlari bo'yicha 20ta) tahlil qilindi. Tahlillar natijasida to'qqiz oy davomida kelib tushgan murojaatlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 224taga kamaygani ma'lum bo'ldi. Bu davr ichida 627ta murojaatdan 613tasi ko'rib chiqilgan, shundan 539tasi (87,9 foiz) ijobiy

hal etilgan, 72tasiga (11,7 foiz) tushuntirish berilgan, ikkitasi (0,4 foiz) vakolat doirasiga kirmagan, 14tasining ijrosi nazoratga olingan.

Qanoatlantirilgan murojaatlar soni 539tani (mahalliy telefon xizmatlari – 29ta, ma'lumotlar uzatish xizmatlari – 192ta, mobil aloqa xizmatlari – 274ta, pochta xizmatlari – 24ta, teleradioeshittirish xizmatlari – 20ta) tashkil etadi.

Raqam va tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2022-yil 9 oyi davomida kelib tushgan murojaatlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan mahalliy telefon xizmatlari bo'yicha 14taga, ma'lumotlar uzatish xizmatlari bo'yicha 240taga, pochta va matbuot xizmati bo'yicha 40taga kamaygan. Mobil aloqa xizmatlari bo'yicha esa 82taga, teleradioeshittirish xizmatlari bo'yicha ikkitaga ko'paygan.

2022-yilning 1-yarim yilligi davomida kelib tushgan murojaatlar tumanlar kesimida tahlil qilinib, tahlillar natijasi bo'yicha murojaatlar soni oshishining oldini olish yuzasidan “Coscom” MCHJga, “UMS” MCHJ Qarshi xizmat ko'rsatish markaziga, “UMS” MCHJ Shahrisabz xizmat ko'rsatish markaziga, “Unitel” MCHJ Janubiy hududiy filialiga, “O'zbektelekom” AK Qashqadaryo filialiga, “O'zMobayl” filiali Qashqadaryo hududiy bog'lamasiga hamda “O'zbekiston pochta” AJ

Qashqadaryo filialiga xatlar chiqarilgan. Shuningdek, shu davrda kelib tushgan takroriy murojaatlar tahlil qilinib, tahlil natijalariga yuzasidan mobil aloqa operatorlariga xatlar tegishincha yuborilgan.

Viloyat hududidagi mobil aloqa va internet qamrovi mavjud bo'lmagan hududlarni mobil aloqa va internet bilan ta'minlashi yuzasidan viloyat hududida faoliyat yuritayotgan mobil aloqa operatorlariga 2021-yil davomida 10 marta, 2022-yil davomida 12 marta, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasiga 2021–2022-yillar davomida uch marta xatlar chiqarilgan.

Mobil aloqa va mobil internet qamrovi mavjud bo'lmagan Dehqonobod tumani, “Chashmamiyon” MFY hududidagi aholidan murojaatlar takror tushganligini inobatga olib, mobil aloqa va mobil internet xizmati tashkil etilishi yuzasidan viloyatdagi mobil aloqa operatorlariga xatlar chiqarilgan. Ushbu mahalla hududida ikki marta fuqarolar bilan uchrashgan holda murojaatlar o'rganilgan va ikki marta mobil aloqa operatorlari rahbarlari bilan joyida sayyor qabul tashkil etilgan.

Qashqadaryo viloyati hududiy inspeksiyasining 2022-yil 1 va 2-yarim yilligida “O'zkomnazorat”ning Qashqadaryo viloyati hududiy inspeksiyasi boshlig'ining viloyat

hududida o'tkaziladigan “Sayyor qabul” rejalari tasdiqlangan. Mazkur ish rejalarga muvofiq 2022-yilning 9 oyida viloyatning 8ta shahar va tumanlarida fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlari ishtirokida sayyor qabul o'tkazildi. Sayyor qabullarda yuridik va jismoniy shaxslardan 15ta murojaat kelib tushgan. Shundan, 14tasi yuzasidan joyida batafsil tushuntirish berilib, murojaatlari ijobiy hal etilgan. Bittasi belgilangan tartibda ro'yxatga olinib ko'rib chiqilgandan so'ng ijobiy hal etilgan.

Mahallabay ishlash tizimi doirasida 2022-yil 9 oy davomida Qashqadaryo viloyat hududiy inspeksiyasi tomonidan 63 marta sayyor qabul o'tkazildi. Sayyor qabullarda 110ta murojaat kelib tushdi. Ularning 107tasi joyida ijobiy qanoatlantirilgan. Uchtasiga tushuntirish berilgan.

Prezidentimiz fuqarolarni rozi qilish, ishonchini oqlash borasida barcha sohalar oldiga ulkan vazifalar qo'yimoqda. Maqsad – xalq roziligiga erishish, fuqarolar farovonligini ta'minlash ekan, har bir fuqaroning muammosini o'zimiznikidek qabul qilib, bu yo'lda barchamiz hamjihatlikda, hamkorlikda sa'y-harakat qilishimiz lozim.

Aftondil ISMOILOV,
“Xabar”ning Qashqadaryo viloyatidagi muxbiri

Faxriylar – faxrimiz

Nuroniylar hurmat va e'zozda

Keksalarni e'zozlash, ularga doimo e'tiborli, mehrli bo'lish qon-qonimizga singigan qadriyatlarimizdan. Ularning hayot tajribalarida sinalgan bebaho o'g'itlari oilalarning tinch-totuv, to'kis yashashida, farzandlar tarbiyasida qanchalar zarurligini hammamiz yaxshi bilamiz. Yoshi ulug'lar bilan maslahatlashib ish tutish, ish boshlashdan oldin ularning duosini olish eng qadrlanadigan an'analarimizdandir.



“O'zbektelekom” AK Surxondaryo filiali tomonidan ham filialda uzoq yillar ishlab, sohani rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan, bugungi kunda nafaqada nuroniylar gashitni surayotgan otaxon va onaxonlar doim e'zozlanadi. Yaqinda ulardan bir guruhi uchun Samarqand shahriga uch kunlik sayohat uyushtirildi. Nuroniylar shaharning barcha tarixiy obidalarini, muqaddas qadamjolarini ziyorat qilishdi.

Shuningdek, faxriylarimiz “Bir piyola choy ustida” tadbiriga taklif etildi. Zero, ota-bobolarimizning ko'rgan-bilganlariga, ularning jamiyatimizda ma'naviyat, tinchlik-totuvlik va barqarorlikni mustahkamlash borasidagi bebaho tajribasiga tayanib ish ko'rmoqlik har jihatdan xayrlidir.

Muqaddas JO'RABOEVA,
“O'zbektelekom” AK Surxondaryo filiali muhandisi

Ichki turizm

BUXORO VA XIVA SHAHARLARIGA SAYOHAT

Qashqadaryo viloyati EMMX xodimlari qadimiy Buxoro va Xiva shaharlarida ikki kunlik sayohatda bo'lishdi.

“Elektromagnit moslashuv markazi” DUK kasaba uyushmasi tomonidan ichki turizmni rivojlantirish hamda xodimlarni sayohatlarga jalb qilish maqsadida uyushtirilgan sayohat davomida xodimlar har ikki shaharlarning qadimiy obidalarini, me'moriy yodgorliklari bilan yaqindan tanishdilar.



E'lon!

O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining 2021-yil 10-dekabrda 188-f-sonli farmoyishiga asosan “Aloqa va axborotlashtirish sohasi tarixi va merosi” jamoat fondi hisob raqamiga 2022-yil 30-sentabrda “Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi” DUK tomonidan 20 000,0 ming so'm homiylik puli kelib tushdi. Mazkur mablag' “Aloqa va axborotlashtirish sohasi tarixi va merosi” jamoat fondi hamda Aloqa tarixi muzeyining 2022-yil uchun tasdiqlangan smeta xarajatlariga yo'naltiriladi.

Kimlar mashinani yaxshiroq haydaydi?

"Android"chilar "iPhone"chilarga qarshi

Amerikaning "Jerry" sug'urta kompaniyasi mashina, uy sug'urtalarini taqqoslash kabi xizmatlarni taklif qiladigan o'z Android va iOS ilovasiga ega. Yaqinda kompaniya Android va iPhone foydalanuvchilari o'rtasida qaysi turdagi smartfon egalari mashinani xavfsizroq haydashini aniqlab beruvchi tadqiqot o'tkazdi.

O'tkazilgan 14 kunlik tajribada 13 million kilometr masofani bosib o'tish davomida yig'ilgan 20000 haydovchining haydash xulq-atvori kuzatilgan va natijada mashina boshqarishda Android foydalanuvchilari iPhone egalari dan yaxshiroq ekanliklari ma'lum bo'lgan.

Taqdim qilingan statistikada Android qurilmasi egalari mashina haydashdagi har bir toifa: umumiy xavfsiz haydash, e'tibor, tezlik, tezlikni oshirish, burilish va tormoz berishda iPhone foydalanuvchilariga qaraganda yaxshi natijaga erishishganligini ko'rish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, haydovchilar iPhone yoki Android ishlatmasin



ularning ta'lim darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, katta yo'lda ham mashinani shuncha yaxshi haydashi aniqlangan. Lekin shunda ham baribir androidchilar ayfonchilardan ustun kelishgan. Masalan, oddiy maktab diplomiga ega bo'lmagan Android foydalanuvchisi iPhone ishlatadigan falsafa fanlari doktoridan ham yaxshiroq mashina haydaydi.

Yosh jihatidan ham haydovchilar qanday turdagi smartfondan foydalanmasin, yoshi katta haydovchilar

o'smirlarga qaraganda yaxshiroq mashina haydashi ma'lum bo'lgan. Ammo, tadqiqotlar bunda ham iPhone egalari Android foydalanuvchilariga qaraganda past baho olganini ko'rsatadi. Masalan, oddiy 18-24 yoshli "yashil robot" egasi, 25-34 yoshli "tishlangan olma" egasidan ko'ra ko'proq ball to'plagan.

Xulosa shuki, ayfonchilar qanchalik past nazar bilan qarasarlar ham, katta yo'lda o'sha oddiy Android egalari ustunlik qilishadi.

Gullar parvarishi



GERAN
YORUG'LIKSEVAR GUL

Ruknimizning bugungi sonida ko'pchilikning sevimli gullaridan biri bo'lgan Geran guli (Pelargoniya), uni parvarishlash haqida ma'lumot beramiz.

Geran guli nafaqat chiroyli gullashi, balki xona havosini filtrlashi, ko'proq kislorod chiqarishi, allergiyaga qarshi kurashish xususiyatlari bilan mashhur. Geranlarni endigina gul o'stirishni havas qilgan gulsevarlar ham osongina parvarish qila oladi. Geranlar yorug'liksevar gullar qatoriga kiradi, xonamizning eng yorug' joyiga qo'yamiz. Xona harorati 22-27 daraja atrofida bo'lishi kerak.

Tuproq'i: 40 foiz biogumus, 20 foiz qum, 20 foiz torfdan iborat bo'lgani maqsadga muvofiq. Tuvganda ortiqcha suv turib qolmasligi uchun albatta drenaj bo'lishi kerak.

Sug'orish: oldindan olib qo'yilgan, tindirilgan, qaynab sovutilgan iliq suv bilan sug'oring. Sovuq holdagi suv ildiz tizimini chirtirishi, kasal qilishi mumkin, tindirilmagan suv tuprog'ida oq cho'kmalar hosil qiladi. Geranlarni bargiga suv sepsish mumkin emas.

Oziqlantirish: bahordan to kech kuzgacha har 2-3 haftada mineralli kompleks o'g'itlar va organik ozuqalar bilan oziqlantirib turish kerak. Tarkibida kaliy, fosfor va azot aralashmali o'g'itlar geranni yaxshi o'sishi va tez gullashiga yordam beradi. Uy sharoitida ham ozuqa tayyorlab berish mumkin: bir litr iliq suvga 2 tomchi yodni aralashtirib 15 kunda bir marotaba sug'orib turilsa, geran gurg'ir-ab gullaydi va barglari tik bo'lib o'sadi. Yodli suv berishdan oldin gul tuprog'ini nam bo'lishi kerak. Geran gullining yana bir sevimli ozuqasi xamir achitqisi, shakarli suv hisoblanadi. Buning uchun 1 choyqoshiq achitqi va 1 osh qoshiq shakardan foydalanamiz. Bir litr issiq suvga solinadi va 2 soatdan keyin gullarga beriladi.

Ko'chirish: geran gullarini tez-tez tuvakdan tuvakka ko'chirish mumkin emas, har 2-3 yilda bir marotaba ko'chirilsa, tuprog'ini almashtirilsa yetarli.

Solijon ZOIROV

Salomatlik

Qandli diabetga chalinganlar uchun...



Mevalar tarkibida uglevodlar mavjud bo'lib, qondagi qand miqdorini oshiradi, ammo qandli diabetga chalinganlar o'z ratsioniga qo'shishi mumkin bo'lganlari ham bor.

Oziqlantirish bo'yicha mutaxassislar ko'katlarga e'tibor berishni tavsiya qiladi. Ular suyaklar, yurak va qon tomirlari uchun foydalidir.

Ushbu ro'yxatga olma ham kiritilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, meva tarkibidagi moddalar yurak kasalliklari va saraton kasalligiga qarshi kurashadi.

Dietologlar qandli diabetga chalinganlarga tarvuzni ham istemol qilishni maslahat berishadi. U vitaminlarga boy va qon bosimiga yaxshi ta'sir qiladi.

Qandli diabetda qulupnay ham istemol qilinishi mumkin. Uning tarkibida antioksidant bo'lib, inson organizmidagi hujayralarni erkin radikallardan himoya qiluvchi ellagik kislota mavjud.

Sitrus mevalar ro'yxatda oxirgi, lekin eng kam emas. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, unda teri va sochni sog'lom saqlashga yordam beradigan juda ko'p A vitamini mavjud.



Изоҳга ҳоҷат йўқ

Solijon ZOIROV

<p>Xabar</p> <p>MUASSIS:</p> <p>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI</p>		<p>Tahrir Hay'ati:</p> <p>Sherzod SHERMATOV (Hay'at raisi), Nazirjon HASANOV, Kommuna IRISBEKOVA, Alisher FAYZULLAYEV, Lutfullo TURSUNOV (Bosh muharrir o'rinbosari), Usmonjon YO'LDOSHEV (Mas'ul kotib).</p>		<p>MANZILIMIZ:</p> <p>100000 Toshkent shahri, Amir Temur 1-tor ko'chasi, 2-uy (Mo'ljal Oloy bozori).</p> <p>Telefonlar: 71-234-18-59, 71-234-18-31. Faks: 71-234-17-91. E-mail: info@xabar.uz</p>	
<p>Bosh muharrir:</p> <p>Abdug'ani ABDURAHMONOV</p>		<p>Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlar egalariга qaytarilmaydi. Muallifning fikrlari tahririyat fikridan farqlanishi mumkin. Nashrimizdan ko'chirib bosilganda "Xabar"dan olinganligi ko'rsatilishi shart</p>		<p>Obuna indeksi — 228.</p> <p>Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. Dizayner: Asliddin BO'RIYEV. Navbatchi: Solijon ZOIROV.</p>	
<p>Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 0016 raqami bilan 2013-yil 23-iyulda ro'yxatga olingan.</p>		<p>Gazeta haftaning juma kuni chiqadi</p>		<p>Gazeta "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi 41-uy.</p>	
<p>Viloyat muxbirlari:</p>		<p>Andijonda (74) 226-47-80</p>		<p>Buxoroda (99)854-7305</p>	
<p>Jizzaxda (94) 199-95-64</p>		<p>Namanganda (91) 353-71-25</p>		<p>Navoiyda (79) 225-91-10</p>	
<p>Nukusda 554-35-45</p>		<p>Samarqandda (91)557-84-44</p>		<p>Termizda (99)508-30-52</p>	
<p>Toshkentda 234-18-59</p>		<p>Urganchda (97) 211-65-05</p>		<p>Farg'onada (73) 244-18-05</p>	
<p>Qarshida (93)931-08-99</p>		<p>ISSN 2010-6424</p>		<p>Boshigga topshirildi — 17 °° Boshigga topshirish vaqti — 24 °°</p>	